

O'RTA TA'LIMDA "CLIL" METODI ORQALI FAN VA TIL INTEGRATSIYASI: AMALIY YONDASHUV VA NATIJALAR

Asqarova Shaxloxon Baxromjon qizi

PDP – school MCHJ / Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'rta ta'lim bosqichida CLIL (Content and Language Integrated Learning – mazmun va til integratsiyasi asosida o'qitish) yondashuvi orqali o'quvchilarda ingliz tilini o'rganish jarayonida fan bilimlarini shakllantirish va shu orqali akademik til ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi. CLIL metodining amaliy qo'llanishi, samaradorligi, muammolari va yechimlari bo'yicha tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu metodning amaliyotda qo'llanishi davomida yuzaga keladigan muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar, dars jarayonidagi innovatsion yondashuvlar hamda yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan kuzatuvlar asosida natijalar yoritib beriladi. Mazkur ish CLIL metodini o'zbek maktablarida qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy asos bo'la oladi.

Kalit so'zlar: CLIL metodi, vizual materiallar, akademik til kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, kognitiv ko'nikmalar, 4C modeli.

Abstract. This thesis examines the issues of forming subject knowledge and developing academic language skills in students during the process of learning English through the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach at the secondary education level. Experiences on the practical application, effectiveness, problems and solutions of the CLIL method are analyzed. Also, problems that arise during the practical application of this method, proposals for their elimination, innovative approaches in the teaching process and results based on observations with senior students are highlighted. This work can serve as a scientific and practical basis for the application of the CLIL method in Uzbek schools.

Keywords: CLIL method, visual materials, academic language competence, communicative skills, cognitive skills, 4C model.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются вопросы формирования предметных знаний и развития навыков академического языка у учащихся в процессе изучения английского языка с использованием метода CLIL (Content and Language Integrated Learning) в средней школе. Анализируется опыт практического применения, эффективности, проблем и решений метода CLIL. Также освещаются проблемы, возникающие в ходе практического применения данного метода, предложения по их устранению, инновационные подходы в учебном процессе и результаты, основанные на наблюдениях за старшеклассниками. Данная работа может послужить научной и практической основой для применения метода CLIL в школах Узбекистана.

Ключевые слова: метод CLIL, визуальные материалы, академическая языковая компетенция, коммуникативные навыки, когнитивные навыки, модель 4C.

Kirish. Zamonaviy ta'limda xorijiy tilni faqat alohida til sifatida emas, balki boshqa fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan vosita sifatida qo'llash ehtiyoji ortib bormoqda. Shunday yondashuvlardan biri – CLIL texnologiyasidir. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat ingliz tilini, balki biologiya, geografiya, informatika kabi fanlarni ham ingliz tilida o'zlashtiradi. Buning afzalligi shundan iboratki, ingliz tilida ilmiy nashrlar son jihatdan ko'p hamda ulardan foydalanish imkoniyati

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

oshishi bilan alohida e'tirof etiladi. Bu integratsiya ikki yoqlama foyda beradi: til va mazmun birgalikda rivojlanadi. CLIL yondashuvi orqali fan mazmunini xorijiy tilda o'zlashtirish, o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, akademik tilni tushunish va qo'llash, tahliliy fikr yuritish, axborot bilan ishlash kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarni nafaqat til o'rganishga, bundan tashqari fanga ham chuqurroq qiziqishga undaydi. Shu bois, bu metod o'rta ta'limda fan va til integratsiyasini ta'minlovchi samarali yondashuv sifatida e'tiborga loyiqdir.

Asosiy qism. CLIL yondashuvining mohiyati:

CLIL – bu mazmun va til integratsiyasi asosida o'qitish metodidir. Ushbu yondashuvni asosiy ingliz tilini o'rganish maqsadida emas, balki boshqa fanlarni o'qitish vositasi sifatida ko'rish mumkin, o'quvchilarda kommunikativ, madaniy, kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilganligi ahamiyatlidir. Bu metod 4C modeliga tayangan:[2]

- Content (mazmun)
 - Communication (muloqot)
 - Cognition (fikr yuritish)
 - Culture (madaniyat)
1. Amaliy yondashuvlar:
- Ingliz tilida biologiya yoki geografiya darslarini o'tkazish (masalan, "The water cycle", "The human body" bo'yicha mavzular).

Fan sohasidagi terminologik lug'atni bosqichma-bosqich o'rgatish.

- Fan sohasiga oid ingliz tilidagi matnlar asosida tahliliy topshiriqlar berish.
 - Audio-video materiallar (TED-ED, National Geographic) orqali kontentni o'zlashtirish.
- Vizual va multimedia materiallaridan foydalanish.
- So'z boyligini mavzuga mos kontekstda o'rgatish, darslarda CLIL strukturasi mos topshiriqlar berish: gap tuzish, matn tahlili, test, muloqotli savol-javob, guruhlarda ishlash.
 - Fanli loyihalar va ingliz tilida taqdimotlar: o'quvchilar kichik ilmiy loyihalar yaratib, uni ingliz tilida himoya qiladi.
 - Formativ baholash: o'quvchilarning fan va til bo'yicha o'zlashtirishini doimiy tahlil qilib borish.

2. Natijalar

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki:

- O'quvchilar tilni kontekstda o'rganib, tezroq o'zlashtiradi.
- Fan mazmuni chuqurroq tushuniladi.
- Akademik ingliz tili ko'nikmalari (eslatmalar yozish, taqdimot qilish, savol-javob) shakllanadi.
- O'quvchilarda tilga nisbatan ichki motivatsiya ortadi, bu esa o'z navbatida fanni chuqurroq o'rganishga turtki bo'ladi.
- Mustaqil izlanish va axborot bilan ishlash ko'nikmalari rivojlanadi [4].

3. Muammolar va takliflar

Asosiy muammolar:

- Aksariyat fan o'qituvchilari xorijiy tilni yetarli darajada bilmasligi.
- Mos o'quv-metodik materiallar va darsliklarning yetishmasligi.
- O'quvchilar o'rtasida til darajalari o'rtasidagi tafovut.

- Dars vaqti yetarli emasligi, yuklama ortiqqligi.

Takliflar

- CLIL bo'yicha o'qituvchilar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilish;
- Mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan CLIL darsliklari hamda qo'llanmalarni yaratish;
- Boshlang'ich CLIL modellarini soddalashtirilgan variantda joriy etish;
- Har bir fan bo'yicha CLILga mos terminlar bazasini ishlab chiqish;
- O'quvchilarni yuqori darajada tilga tayyorlab borish orqali CLIL metodlarini dars jarayonida faollashtirish [3].

Xulosa. CLIL – bu zamonaviy ta'limga mos, yuqori samaradorlikka ega integratsiyalashgan o'qitish usulidir. Uning asosiy ustunligi shundaki, bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat ingliz tilida erkin fikr yuritish, balki akademik fanlarni chuqurroq o'zlashtirishga ham xizmat qiladi. CLIL metodi orqali ta'lim jarayonida til va mazmun birgalikda shakllanadi, bu esa o'quvchilarni global raqobatbardosh shaxs sifatida tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, CLIL asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularni tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, 10-11-sinf o'quvchilari uchun bu usul akademik til kompetensiyasini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri bo'lib, ular oliy ta'limda va xalqaro imtihonlarda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Biroq CLIL metodini to'laqonli joriy etish uchun bir qator shart-sharoitlar va tayyorgarlik zarur:

- O'qituvchilarning til va metodik tayyorgarligi.
- Sifatli CLIL materiallari, darsliklar va resurslar mavjudligi.
- O'quvchilarning boshlang'ich til kompetensiyalarini mustahkamlash;
- CLIL ga mos baholash tizimi ishlab chiqish [1].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, CLIL metodini joriy etish bosqichma-bosqich, o'quvchilar yoshiga va til tayyorgarligiga mos holda amalga oshirilsa, u nafaqat o'zbek maktablarida, balki butun respublika miqyosida ta'lim sifatini oshirishda muhim poydevor bo'la oladi.

Shunday qilib, CLIL til va mazmuni uzviy bog'lovchi, o'quvchini bilimli, zamonaviy va xalqaro fikrlovchi shaxsga aylantiruvchi yondashuvdir. Uning amaliyotga joriy etilishi ingliz tilini o'qitish sifati, shuningdek, fanlarni o'zlashtirish darajasini ham sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press, 2010.
2. Nazarova G.M. Til va fan integratsiyasiasosida akademik ingliz tilini o'qitishning innovatsion yondashuvlari. "Zamonaviy ta'lim" imiy-metodik jurnal, 2024. – B. 59–63.
3. Sanoqulova M.T. O'zbek maktablarida CLIL metodikasining joriy qilinishi: muammolar va yechimlar. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2023, – B. 47–51.
4. Xalqaro CLIL dasturlari tajribasi: metodik qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2022. – 95 b.